

Toshkent viloyati hududlari bo'ylab "Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi" mavzusida ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy hamda xotin-qizlarning ilmiy salohiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar

Joriy yilning 12-fevral sanasida Yuqori Chirchiq tuman Madaniyat bo'limi hamda Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi Yuqori Chirchiq tuman bo'linmasi birgalikda tumanning 18-umumiy o'rta ta'lim maktabida **"Ibratli va ilmli ayol mahalla faxri"** nomli ko'rik tanlovi o'qituvchilar orasida bellashuv tariqasida tashkil etildi. 5-shart bo'yicha o'qituvchilar bellashuv olib bordilar. Tanlov so'ngida bo'linma tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi. Madaniyat bo'limi xodimlarining diltortar kuylari yig'ilganlarga a'lo kayfiyat ulashdi.



11-fevral kuni Yoshlar markazida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy ayol-jamiyat ko'zgusi" mavzusida 11-fevral –"Ilm-fan sohasidagi ayollar va xalqaro kuni"ga bag'ishlangan davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Davra suhbatida San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektor Imankulova Inobat Mahkambayevna, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Kimyoviy texnologiya kafedrasida dotsenti Kuchkarova Noila Xusniddinovna ishtirok etdilar. Ishtirokchilar 150 tani tashkil qildi.



"Men namunali harbiy oila bekasiman" shiori ostida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi miqyosida bosqichma-bosqich o'tkaziladigan "Balli ayollar" ko'rik tanlovining tuman bosqichi o'tkazildi.



Olis hududlarda istiqomat qiluvchi Angren shahar “Dukent” madaniyat markazida O‘zbek milliy maqom san’ati markazi Toshkent viloyati hududiy bo‘limi badiiy jamoasining konsert dasturi namoyish etildi. Shahar hokimligi tashabbusi, madaniyat, ma’naviyat fidoyilarining sa’y-harakatlari bilan shahar aholisi uchun uyushtirilgan konsert dasturi yuqori saviyada o‘tdi. Ushbu tadbirga mahalla xodimlari, shahar Nuroniylar Kengashi a’zolari, mehnat faxriylari, mahalla faollari hamda yoshlar taklif etildilar.

